

# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

No 8

2025

avgust



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



# **muhandislik & iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

**Bosh muharrir o'rinosari:**

**Shakarov Zafar G'afforovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

**Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbanov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Botirali Roxataliyevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyedtinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekomunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

Visualdsp++ platformasida raqamli signal protsessorlarini dasturlash texnologiyasi .....	12
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich	
Tadbirkorlik tushunchasi: falsafiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik tahlil.....	19
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
Xorijiy davlatlar sog'liqni saqlash tizimida investitsiya loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish mexanizmi .....	26
Karabayev Sanjar Abdusamatovich	
Feasibility study and site optimization for small hydropower plants along the syr darya river in Uzbekistan.....	33
Karimov Mustafo Aminbayevich, Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
Agrar sohada risklarning o'zaro ta'sirchan tarzda namoyon bo'lish xususiyatlari.....	42
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Parrandachilik mahsulotlari omilli tahlil qilishda indeks usulidan foydalanish. ....	47
Bobomuratov Imomkul Islamovich	
O'zbekiston telekommunikatsiya sohasida raqamlashtirish jarayonlarini samarali boshqarish: "O'zbektelekom" ak misolda.....	56
Islamov Javlon Rasulovich	
Tijorat banklari amaliyotida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish yo'nalishlari.....	59
Rustamov Sunnatillo Rustamovich	
Tadbirkorlikning mamlakat yaimdag'i ulushi va uning o'zgarish tamoyillari .....	66
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
Norasmiy bandlikning yashirin iqtisodiyot shakllanishi va dinamikasiga ta'sirining nazariy va amaliy jihatlari .....	72
Xasanov Jaxongir Jamshidovich, Sharifxo'jayev Shavkat Oqilovich	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlarning amaliy holati va dinamikasi .....	80
Irgasheva Nigora Akbarovna	
Туристская мобильность стран персидского залива как устойчивый и перспективный источник въездного туризма в Узбекистан .....	87
Голышева Елена Вячеславовна; Додиев Феруз	
O'zbekistonda sug'urta bozori holati va o'sish sur'ati .....	96
Bazarov Zakir Xonqulovich	
Davlat xardilarida narxning eng yuqori chegarasi: huquqiy mexanizm va amaliy ahamiyati .....	101
Mamasoliyev Abrorbek Abdu'ani o'g'li	
O'zbekiston respublikasida norasmiy sektor va aholini norasmiy mehnat bilan bandligining legallashtirishini boshqarishni istiqbolli ko'rsatkichlari.....	105
Qoraboev Nuriddin Pardaboy o'g'li	
Разработка инновационных инструментов и механизмов стратегического управления проектами .....	110
Мансурова Севара Мансуровна	
Sug'urta kompaniyalarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning metodologik asoslari: nazariy va amaliy jihatlar .....	114
Haqberdiyev Bekzod O'ktamovich	
Учёт и аудит обязательств на предприятиях: анализ зарубежного опыта и практики .....	120
Халықназарова Гулназ Жалгасбай кызы	
Theoretical Basis for Ensuring a Cotton Layer on a Conveyor Belt .....	126
G'R.Rakhmatov	



Korxonalarning moliyaviy barqarorligini boshqarish .....	132
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li	
Targetlangan iqtisodiy siyosat orqali kambag'allikka qarshi kurash.....	138
Baratov J.N.	
Jismoniy shaxslarning daromadlariga deklaratsiya asosida soliq solish mexanzmini takomillashtirish .....	144
Ibragimov Zafar Ismailovich	
Bekobod sement zavodida ishlab chiqarish jarayonlarida og'ir mehnat omillarini avtomatlashtirish orqali xavfni kamaytirish .....	152
Ishchanov Atabay Reyimberdiyevich	
Tadbirkorlikning mamlakat yaimdag'i ulushi va uning o'zgarish tamoyillari .....	159
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
Практические подходы к выявлению и оценке налоговых рисков на основе сегментации деятельности налогоплательщиков .....	164
Голубова Ольга Сергеевна, Элбаева Мукаддас Рашидовна	
Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jaroyonlarini takomillashtirish .....	170
Kulboyeva Nargiz Majitovna	
O'zbekistonda innovatsion faoliyatga ta'sir qiluvchi tashqi va ichki omillar.....	176
Anasxon Yunusov A'zamjon o'g'li	
Применение метода анализа иерархий для выбора оптимальной экспортной стратегии: на примере Узбекских предприятий, экспортирующих товары в Россию. ....	180
Муниса Мирзалиевна Турдибаева	
Processing of Sulfide Copper Ores With Copper and Silver Recovery. ....	185
Mamaisakova Zebo Bahodir qizi	
Korxonalar eksport salohiyatini rivojlantirishning xorij tajribasi.....	189
Naimxonov Ma'rufxon Zokirxon Og'li	
Corporate Governance Reforms and Financial Performance Dynamics: Evidence From State-Owned Banks in Uzbekistan.....	194
Yusufjon Pulatov, Bakhtiyor Islamov	
Tijorat banklari tomonidan kreditlash mexanizmning uslubiy jihatlari va o'ziga xos xususiyatlari .....	200
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	



# TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KREDITLASH MEXANIZMINING USLUBIY JIHATLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich**

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

mustaqil izlanuvchisi., PhD

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tijorat banklarining kreditlash mexanizmi uslubiy jihatdan tahlil qilinadi hamda uning milliy bank amaliyotiga xos xususiyatlari olib beriladi. Xususan, kredit siyosatini shakllantirish, qarz oluvchilarini baholash mezonlari, kredit portfelining tuzilmasi va risklarni boshqarish metodlari chuqur o'rganiladi. Tadqiqot davomida O'zbekiston tijorat banklari tajribasi, xalqaro yondashuvlar bilan solishtirilib, mavjud farqlar va o'xshashliklar aniqlanadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirilgan kredit baholash tizimlarining joriy etilishi, banklar faoliyatida kredit jarayonlarining sifatini oshirishga qanday ta'sir ko'ssatayotgani baholanadi. Maqolada ilgari surilgan xulosalar va tavsiyalar tijorat banklarining kreditlash strategiyasini takomillashtirish va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** tijorat banklari, kreditlash mexanizmi, kredit siyosati, risklarni boshqarish, baholash mezonlari, kredit portfeli, raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish, bank amaliyoti.

**Abstract:** This article explores the methodological aspects of the lending mechanism employed by commercial banks, along with its specific features within the context of national banking practices. Particular attention is given to the formation of credit policy, borrower evaluation criteria, credit portfolio structure, and risk management methods. The study compares the practices of commercial banks in Uzbekistan with international approaches, identifying key similarities and differences. Additionally, the impact of digital technologies and automated credit assessment systems on improving the quality of lending processes is evaluated. The conclusions and recommendations proposed in the article aim to enhance lending strategies and increase the operational efficiency of commercial banks.

**Keywords:** commercial banks, lending mechanism, credit policy, risk management, evaluation criteria, credit portfolio, digital technologies, automation, banking practice.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются методологические аспекты механизма кредитования, применяемого коммерческими банками, а также его характерные особенности в условиях национальной банковской практики. Особое внимание уделено формированию кредитной политики, критериям оценки заемщиков, структуре кредитного портфеля и методам управления рисками. В ходе исследования анализируется опыт коммерческих банков Узбекистана в сравнении с международными подходами, выявляются различия и сходства. Также оценивается влияние внедрения цифровых технологий и автоматизированных систем кредитной оценки на повышение качества кредитных процессов. Выводы и рекомендации, представленные в статье, направлены на совершенствование стратегии кредитования и повышение эффективности деятельности коммерческих банков.

**Ключевые слова:** коммерческие банки, механизм кредитования, кредитная политика, управление рисками, критерии оценки, кредитный портфель, цифровые технологии, автоматизация, банковская практика.

## KIRISH

Tijorat banklari zamonaviy moliyaviy tizimning eng muhim institutlaridan biri sifatida iqtisodiyotda kapital harakati, moliyaviy vositachilik va xo'jalik yurituvchi subyektlarning rivojlanishini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ayniqsa, kreditlash faoliyati banklar uchun asosiy daromad manbai bo'lishi bilan birga, mamlakat ichki iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim moliyaviy instrument hisoblanadi. Shunuqtai nazardan, kreditlash mexanizmining shakllanishi, uning ilmiy-nazariy va uslubiy asoslari bank amaliyotida ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Kreditlash mexanizmi deganda bank tomonidan qarz oluvchiga mablag' ajratishning aniq bosqichlari, tamoyillari, baholash usullari va qaror qabul qilish mezonlari tushuniladi. Bu jarayon o'z ichiga kredit siyosatini ishlab chiqish, kredit arizasini tahlil qilish, qarz oluvchining to'lov qobiliyatini baholash, kreditni rasmiylashtirish, nazorat va monitoring, shuningdek, kredit qaytarilishini ta'minlash bilan bog'liq bir qator amaliy bosqichlarni oladi. Har bir bosqichda qo'llaniladigan yondashuvlar va usullar bankning umumiyl moliyaviy barqarorligi, kredit portfelining sifati va mijozlar bilan uzoq muddatli ishonchli aloqalarni shakllantirishiga bevosita ta'sir qiladi.

Ayni paytda O'zbekiston tijorat banklarida ham kreditlash faoliyati bosqichma-bosqich modernizatsiyalashmoqda. Raqamli texnologiyalar joriy etilayotgani, kredit scoring tizimlari rivojlanayotgani, mijozlar ma'lumotlarini tezkor tahlil qilish imkonini beruvchi big data platformalaridan foydalanilayotgani ushbu sohada yangi



yondashuvlarni talab etmoqda. Biroq amaliyotda hali ham kredit baholashda subyektiv yondashuvlar, inson omilining yuqoriligi, risklarni aniqlashda kechikish, kredit portfeli tarkibidagi nomutanosiblik va muammoli kreditlarning o'sishi kabi holatlar kuzatilmoqda. Bu esa kreditlash mexanizmining chuqur tahlil qilinishini, uslubiy jihatdan mukammallashtirilishini taqozo etadi.

Ushbu maqolada tijorat banklari tomonidan kreditlash mexanizmini shakllantirishda qo'llanilayotgan uslubiy yondashuvlar, ularning afzallik va kamchiliklari, zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashgan kredit baholash vositalari, shuningdek, milliy va xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan ilg'or amaliyotlar tahlil qilinadi. Xususan, Turonbank ATB misolida olib borilgan tahliliy kuzatuvlar asosida bank kreditlash tizimining holati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'nalishlariga oid takliflar ishlab chiqiladi. Tadqiqotdan ko'zlangan maqsad kreditlash mexanizmining uslubiy asoslarini chuqur o'rganish, ularning o'ziga xos jihatlarini aniqlash va amaliy takomillashtirishga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOLAR SHAHRI

Tijorat banklarining kreditlash mexanizmini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ayniqsa uning uslubiy yondashuvlari va amaliyotdagи o'ziga xos jihatlarini aniqlash, so'nggi yillarda iqtisodchi olimlar va moliyaviy tahlilchilar e'tiborida bo'lib kelmoqda. Ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar kredit siyosatini shakllantirish, qarz oluvchilarni baholash mezonlari, risklarni boshqarish tizimi va kredit portfelini diversifikatsiya qilish kabi muhim komponentlarni o'z ichiga oladi.

Mahalliy tadqiqotchilardan Komilov U.K. (2022) o'zining "Tijorat banklari faoliyatini boshqarish" nomli monografiyasida banklarning kredit siyosatini shakllantirishdagi metodologik yondashuvlar, kredit resurslarning iqtisodiy samaradorligi va mijozlar bilan ishlashdagi asosiy bosqichlarni batafsil yoritgan. Muallifning fikricha, har bir bank o'zining strategik maqsadlari, moliyaviy salohiyati va bozor sharoitlariga qarab kreditlash uslublarini shakllantirishi lozim.

Rahmatova N. (2021) tomonidan e'lon qilingan "Kredit risklarini boshqarishning ilmiy asoslar" nomli tadqiqotda kredit riskining turlari, baholash metodikalari va ularni yumshatish strategiyalari tahlil qilinadi. Asimmetrik axborot nazariyasi, "moral hazard" va "adverse selection" kabi konsepsiylar bank kreditlash usuldarida qanday ahamiyat kasb etishi yoritilgan.Toshpulatov D. (2022) esa "Banklarda raqamli kreditlash mexanizmlarini joriy etishning dolzarb masalalari" mavzusida raqamlashtirishning bank kreditlash sifatiga ta'siri, avtomatlashtirilgan kredit baholash tizimlari, scoring algoritmlari va sun'iy intellekt vositalarini kredit qarorlariga integratsiyalash masalalarini ko'taradi. Bu yondashuvlar kreditlash mexanizmining yangi uslubiy bosqichga ko'tarilishini anglatadi.

Xalqaro miqyosda esa Berger va Udell (2006) tomonidan tayyorlangan "The Economics of Small Business Finance" nomli maqolada kichik biznes kreditlashining o'ziga xos xususiyatlari, baholash mezonlari va moliyaviy vositachilikdagi muhim jihatlar tahlil qilingan. Bu maqola banklarning qarz oluvchilar bilan ishlash uslubiyati bo'yicha klassik tadqiqotlardan biri hisoblanadi.Boot va Thakor (2010) tomonidan e'lon qilingan "Relationship Banking and Risk Management" nomli maqolada esa uzoq muddatli bank-mijoz aloqalari, ularning kredit qarorlariga ta'siri va ichki kredit risklarini boshqarishdagi afzalliklari ko'rib chiqiladi. Mazkur ish tijorat banklarida mijoz bilan ishlash strategiyasini uslubiy asoslashda katta ahamiyatga ega.Langfield S. (2019) esa "Digital Lending Platforms and Financial Stability" nomli maqolada sun'iy intellekt va raqamli kredit platformalarining bank sektoridagi barqarorlikka ta'siri, ulardan foydalanishdagi xavf va afzalliklarni tahlil qiladi. Bu tadqiqot kreditlash mexanizmini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirishning nazariy va amaliy asoslarini ochib beradi.Adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarning kreditlash mexanizmi doimiy ravishda takomillashib bormoqda va bu jarayon metodologik, texnologik va strategik yondashuvlarning uyg'unligi asosida amalga oshirilmoqda. O'zbekiston bank sektori ham xalqaro tajribalarni o'rganib, kreditlashda zamonaviy uslublarni joriy etishga intilmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI


Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari kreditlash mexanizmini shakllantirishda yagona uslubga asoslangan, chuqur tahlil qilingan va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashgan yondashuvni qo'llashga ehtiyoj sezmoqda. Ayniqsa, har bir bosqichning kredit arizasini qabul qilishdan tortib, qaror qabul qilish, monitoring, kredit portfelini boshqarish va muammoli kreditlar bilan ishlashgacha bo'lgan jarayonlarining puxta metodologik asosda ishlab chiqilishi bank faoliyatining samaradorligini belgilaydi.



Turonbank ATB misolida olib borilgan tahlillar, bankda mavjud jarayonlar va ularning takomillashtirish yo'nalishlari, kreditlashning o'ziga xos jihatlari va milliy sharoitga mos uslubiy echimlarning dolzarbligini ko'rsatadi. Xalqaro amaliyotlar asosida joriy etilayotgan scoring tizimlari, sun'iy intellekt yordamida qaror qabul qilish, real vaqt monitoringi va ERP tizimlari bilan to'liq integratsiyalashgan hujjat aylanishi bank uchun yangi darajadagi barqarorlik va shaffoflikni ta'minlash imkonini beradi. Umuman olganda, kreditlash mexanizmidagi uslubiy yondashuvlarni chuqurlashtirish, milliy va xalqaro tajribalarni uyg'unlashtirish, shuningdek texnologik innovatsiyalarni tizimli joriy etish tijorat banklarida raqobatbardosh, xavfsiz va ishonchli kredit muhitini shakllantirishda asosiy kalit vazifasini bajaradi.



**1-rasm:** Turonbank ATB misolida kreditlash mexanizmini takomillashtirish natijasida kutilayotgan yaxshilanishlar<sup>1</sup>

Yuqorida grafiqada Turonbank ATB misolida kreditlash mexanizmini takomillashtirish orqali kutilayotgan asosiy samaralar vizual tarzda ko'rsatilgan. Har bir muammo uchun qancha foizga yoki vaqtga yaxshilanish kutilayotgani aniq aks ettirilgan:

Kredit riskini kamaytirish: 5%

Muammoli kreditlar ulushi: 3% ga kamayadi

Hujjat aylanishi: 1.75 kun tezlashadi

Risk portfelining muvozanati: 6% yaxshilanish

Takroriy kreditlar: 20% kamayish

Grafiqada tijorat banklarining kreditlash faoliyatidagi mavjud muammolarni bartaraf etish orqali kutilayotgan ijobjiyo'zgarishlar foiz va vaqt ko'rinishida ifodalangan. Xususan, qarorlar subyektivligini kamaytirish, kredit risklarini oldindan baholash imkoniyatlarini yaxshilash, hujjat aylanishini tezlashtirish, portfel diversifikatsiyasini kuchaytirish va muammoli kreditlar sonini qisqartirish orqali bankning umumiy moliyaviy samaradorligi oshadi.

**1-Jadval:** Turonbank ATB Ichki Kredit Amaliyoti Tahlili (2023–2024)<sup>2</sup>

Ko'rsatkichlar	2023 yil	2024 yil
Ajratilgan kreditlar miqdori (mlrd so'm)	4800.0	5630.0
Kredit portfeli o'sish sur'ati (%)	12.5	17.8
Kreditlarning qaytish darajasi (%)	94.3	96.1
Muammoli kreditlar ulushi (%)	5.1	3.4
Kichik biznesga ajratilgan kreditlar (mlrd so'm)	1250.0	1630.0

1 Muallif tomonidan Turonbank ATB ichki kredit amaliyoti, 2023–2024 yillari tahlili asosida ishlab chiqilgan

2 Manba: Muallif tomonidan Turonbank ATB ichki kredit amaliyoti, 2023–2024 yillari tahlili asosida ishlab chiqilgan.



Jadvalda Turonbank ATBning 2023–2024 yillar davomida amalga oshirgan ichki kredit faoliyatiga doir asosiy ko'rsatkichlar tahlil qilingan. Ushbu davr mobaynida kredit portfelining o'sish sur'ati barqaror tarzda ortgani, ayniqsa kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlar hajmining sezilarli darajada ko'paygani bankning iqtisodiy faoliyini rag'batlantirishdagi faol ishtirokini ifodalaydi. Shu bilan birga, muammoli kreditlar ulushining kamayishi bankning risklarni boshqarish tizimi yanada takomillashtaganini, kredit siyosatida samarali yondashuvlar joriy etilganini ko'rsatadi. Bu esa bank faoliyatining barqarorligi va ishonchhliliqi oshayotganidan dalolat beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklari tomonidan amalga oshirilayotgan kreditlash mexanizmining uslubiy jihatlari va o'ziga xos xususiyatlari banklarning moliyaviy barqarorligi, risklarga chidamliligi hamda iqtisodiyotni kredit bilan ta'minlashdagi positachilik salohiyati bilan chambarchas bog'liqdir. Amaliy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda banklar kredit faoliyatini yuritishda turli metodologik yondashuvlardan foydalanmoqdalar, biroq bu yondashuvlar har doim ham ilg'or xalqaro standartlarga, riskga asoslangan baholash tizimlariga yoki texnologik imkoniyatlarga to'laqonli integratsiyalashmagan.

Uslubiy jihatdan qaralganda, tijorat banklarida kreditlash mexanizmi asosan an'anaviy kredit ko'rsatkichlariga asoslangan holda shakllanmoqda. Risklarni aniqlash va baholash jarayonlarida statistik tahlillar, kredit tarixiga asoslangan metodlar va ekspert baholari ustuvorlik qilmoqda. Biroq bunday yondashuvlar ko'p hollarda subyektivlikka, inson omilidan yuqori darajada bog'liqlikka olib keladi. Bu esa kredit risklarining oldindan prognoz qilinishini murakkablashtiradi. Shuningdek, har bir tijorat bankining ichki siyosati, mijozlar bazasi, texnologik infratuzilmasi va xizmat ko'rsatish modeli o'ziga xos bo'lib, bu kreditlash mexanizmining xususiyatlari bevosita ta'sir qiladi. Masalan, ayrim banklar kichik biznesni moliyalashtirishga ixtisoslashgan bo'lsa, boshqalar ko'proq ipoteka yoki iste'mol kreditlariiga urg'u berishi mumkin. Bu holat kredit portfeli diversifikatsiyasini ta'minlasa-da, umumiyl uslubiy yondashuvda farqlarga olib keladi.

Kelgusida kreditlash mexanizmini takomillashtirish uchun quyidagilar muhim deb hisoblanadi:

- Riskga asoslangan kredit siyosatini ishlab chiqish;
- Sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan baholash tizimlarini joriy etish;
- Kredit monitoringini real vaqt rejimida yuritish;

Xalqaro amaliyotlarga mos keluvchi ichki metodologiyalarni ishlab chiqish va qo'llash.

Ushbu maqolada taqdim etilgan xulosalar va tavsiyalar tijorat banklarining kreditlash siyosatini takomillashtirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, iqtisodiyotni kredit bilan qo'llab-quvvatlash, banklar o'tasida sog'lom raqobatni shakllantirish va moliyaviy positachilik sifatini oshirishda zamonaviy uslubiy yondashuvlarning roli beqiyosdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Комилов, У.К. (2022). Tijorat banklari faoliyatini boshqarish. Toshkent: TDIU nashriyoti.
2. Раҳматова, Н. (2021). Kredit risklarini boshqarishning ilmiy asoslari. Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, №3, 17–22.
3. Toshpulatov, D. (2022). "Banklarda raqamli kreditlash mexanizmlarini joriy etishning dolzarb masalalari". Iqtisodiyot va innovatsiyalar, №4(29), 34–39.
4. Turonbank ATB (2024). Kredit portfeli va moliyaviy monitoring bo'yicha hisobotlar (2023-yil yakuni). Rasmiy sayt: [www.turonbank.uz](http://www.turonbank.uz)
5. Hasanov, S. (2023). "Kreditlashda IFRS 9 standartlarini qo'llash tajribasi". Moliyaviy boshqaruv jurnali, №2, 26–31.
6. Boot, A.W., & Thakor, A.V. (2010). Relationship Banking and Risk Management. Journal of Financial Intermediation, 19(3), 439–456.
7. Berger, A.N., & Udell, G.F. (2006). The Economics of Small Business Finance: The Roles of Private Equity and Debt Markets. Journal of Banking & Finance, 22(6), 613–673.
8. Langfield, S. (2019). Digital Lending Platforms and Financial Stability. Bank of England Working Paper No. 821.
9. European Banking Authority (2023). Guidelines on Loan Origination and Monitoring. EBA Publications.
10. World Bank (2023). Bank Credit Risk Assessment and Management Tools in Emerging Markets. Washington, D.C.: World Bank Group.
11. International Monetary Fund (2022). Credit Growth, Risk, and Resilience: Policy Options for Banking Stability. IMF Policy Paper.
12. Karimova, D. (2021). "Kredit siyosatini optimallashtirishda axborot texnologiyalarining o'rni". Ilm va amaliyot, №1, 45–50.
13. Norova, N.N. (2024). "Sun'iy intellekt va big data asosida kredit baholash metodlari". Iqtisodiy tadqiqotlar, №1, 18–24.
14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2023). Tijorat banklarida risklarni baholash mezonlari bo'yicha tavsiyalar. Toshkent: MB axborot xizmati.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (2022). Bank-moliya tizimini raqamlashtirish konsepsiysi (2022–2026). Rasmiy hujjat.
16. Moody's Investors Service (2023). Credit Risk Trends in Central Asian Banking. New York: Moody's Analytics.
17. Deloitte (2022). Digital Transformation in Banking: Credit Risk and Automation. Global Financial Report.
18. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (2023). Amaldagi tahrir. Rasmiy nashr.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 8**

---

© Materiallar ko'chirib bosinganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosingan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod**  
**tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)